

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

OGAHIYNING “RUH” RADIFLI G‘AZALI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nazira Madraximova,
*Urganch Ranch texnologiya
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada MuhammadRizo Ogahiy ijodidagi tasavvufga oid qarashlar, xususan, “Ruh” radifli g‘azali haqida ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ruhiy olam, riyozat, tasavvuf, nafs, haqiqat, fano.

Ma’lumki, jismoniy mavjudlik bilan ruhiy olam o‘rtasidagi munosabat tasavvuf falsafasida turli jihatlardan tadqiq va talqin qilib kelinadi. Mumtoz adabiyotimizning atoqli namoyandalari ijodida nafs va ruh o‘rtasidagi kurash motivining keng o‘rin egallashi ham bu ta’limotning inson ma’naviy dunyosida muhim ahamiyat kasb etishini asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga tasdiqlayveradi. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr” dostonida shu misralarni yozgan:

Uldur erkin salb etib nafsoniyat,
G‘olib etkay zotig‘a ruhoniyat.

Bu bayt mazmunidan kelib chiqadigan xulosa shuki, ruhiy olam g‘olibiyatini istagan kishi nafsga erk bermasligi lozim.

Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yoqtur Navoiyning navosidin sanga

kabi e’tirof etgan ulug‘ bobomiz Muhammadrizo Ogahiy bu mavzuda ham daho shoir fikrlariga hamohang misralar ijod qildi.

Quyida biz Ogahiyning “Ruh” radifli g‘azalini imkon darajasida tahlilga tortar ekanmiz, yuqoridagi hukmni isbotlashga kirishamiz.

Gar toat ichra istasang, ey dil, safoyi ruh,
Tan chirkini riyozat ila qil judoyi ruh.

Begona qil gar odam esang o‘zni nafsdin,
Ixlos ila muft o‘lubon oshnoyi ruh.

Lirik qahramon o‘z muddaosini dilga – ko‘ngilga murojaatdan boshlaydi. Bu yerda “tan chirki” nafs tufayli paydo bo‘lgan illatlardir. Nafsnı yengish mashaqqatidan cho‘chimagan insongina o‘z ruhini poklay oladi. Ikkinchi bayt mazmuni esa yuqorida Navoiydan keltirib o‘tilgan bayt mohiyatiga hamohanglik kasb etadi. Ya’ni, Navoiy agar nafsga erk bersang, ruhni mag‘lub etadi, desa, Ogahiy

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

agar odamman desang, o‘zingni nafsdan xalos qil, qutqar va ixlos bilan, e’tiqod bilan ruhga oshno bo‘l, deydi.

Navbatdagi baytda noshirlar e’tiborsizligi tufayli, bizningcha, “nafs” so‘zi “nafas” kabi yozilgan va bayt mazmuni buzilgan holatga duch kelamiz:

Zillat sanga hamisha yeturmak murodi nafas,(aslida “nafs” bo‘lishi kerak-N.M.)
Qilmoq, sani aziz mudom iqtizoyi ruh.

Bayt mazmunini quyidagicha sharhlash mumkin: “murodi nafs”, ya’ni nafsning murod-u maqsadi insonni tubanlik botqog‘iga itarish bo‘lsa, ruhning istagi esa, insonni bori mavjudot ichra aziz qilmoqdir. Keyingi baytda Ogahiy ruhni, “haqiqat olamining sayrig‘a” undab nido qila olishini, ammo kishilar g‘aflatda qolishidan afsuslanadi. Shundan keyin ogohlikka, hushyorlikka da’vat qiladi:

Tun-kun xayoli yorni jon ichra asrag‘il,
Kim xush turur hamisha badan bo‘lsa, joyi ruh.

Demak, Alloh- yor xayolini bir dam tark etmasligi kerak. Chunki ana shunda inson jismi ruhiyat mulkiga aylanadi – ruhning makoni bo‘ladi. Alloh yodi bilan yashaydigan insonlar hech qachon hech kimga yomonlik sog‘inmaydilar. Aksincha, qo‘lidan kelgancha yaxshilik istaydilar. Keyingi baytda abadiy mavjud bo‘lgan yor – Alloh vasliga yetishganlar ruhi abadiy ekanligiga diqqatni qaratadi. Yuqoridagi baytlarda, avvalo, nafsdan xalos bo‘lish, keyin badanni ruh makoniga aylantirish yoki Alloh yodini aslo tark etmaslik lozimligi ta’kidlangan bo‘lsa, nihoyat ana shu xatti-harakatlar mukofoti Alloh vasliga yetishuv yo‘li ko‘rsatiladi.

Sozing yeturdi jonima quvvat, mug‘anniy,
Go‘yoki erdi nag‘mai sozing g‘izoi ruh.

Bu o‘rindagi mug‘anniy, kuychi kim bo‘lishi mumkin, deya savol qo‘yib, javoblardan birida shoirning o‘zini ham keltirish mumkin. Ya’ni, shoir Sharq mumtoz adabiyoti an’analaridan biri – o‘z so‘zidan, o‘z qasamidan o‘zi faxrlanishi va buni ijodiy namunalarda qayd etib o‘tishi hodisasini bu yerda keltirib o‘tayapti. Albatta shoirning bunga to‘la asosi bor. Chunki g‘azal chindan ham go‘zallik haqidagi, qalb go‘zalligi haqidagi go‘zal asardir.

Soqiy, karam qilib manga tut sog‘ari fano,
Kim xotiri dayr aro istar jaloyi ruh.

Bu o‘rinda shoir g‘azaldagi tasavvufiy ruhni yanada bo‘rttiradi. Fano mayini ichib, bu dunyodan voz kechib, butun borlig‘ini Alloh yo‘lida toat-ibodatga bag‘ishlash lirik qahramonning asl muddaosi sifatida yuzaga keladi.

Tan rohatini, Ogahiy, tun-kun talab qilib,
Ko‘rgo‘ng ravo qachong‘acha ranju anoyi ruh.

Shoir fano mayini ichishga bo‘lgan ishtiyoqi sababini ana shunday ochadi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ya’ni, tan rohati yo‘lidagi harakatlarga chek qo‘ymasa, uning ruhi mashaqqatu azoblar ichida qolaveradi. Ruhni ana shu azoblardan qutqarish payti keldi. Ruh ozodligi esa insonning ma’naviy kamoloti yo‘lidagi dastlabki shartlardan biridir.

Tasavvuf falsafasi o‘zbek olimlari tomonidan ham o‘rganilishi davom etmoqda. Tadqiqotchi Gulandom Tog‘ayevaning bu sohadagi fikrlari quyidagicha: “Mafkura, bizningcha, jamiyatning ruhiy libosidir, tasavvuf esa unga jilo va joziba bag‘ishlaydi. Jamiyat komil inson tuyg‘usisiz ezgu va insonparvar jamiyat bo‘la olmaydi”. Tadqiqotchi o‘z mulohazalarini davom ettirib, tasavvuf ta’limotining bugungi avlod ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ta’kidlab o‘tadi. Yuqoridagi tahlilga tortganimiz Ogahiy g‘azalidagi ruh pokligi, qalb tozaligiga intilish g‘oyasi va bunga erishuvga rag‘batlantirish motivlari o‘z mohiyatiga ko‘ra zamonaviylik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ogahiy. Ta’viz-ul oshiqin. Devon. T., 1960. B. 113.
2. G. Tog‘ayeva. Yana tasavvuf haqida. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2003, 6-son.
3. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
4. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
5. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
6. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
7. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
9. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
10. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.